

## BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA MATEMATIK SAVODXONLIKNI SHAKLLANTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI

**Ravshanova Xurshida Utkirovna**  
*Toshkent Moliya Instituti bitiruvchisi*  
*UK School of Tashkent katta o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida matematik savodxonlikni shakllantirishning zamonaviy usullari yoritilgan. Unda kompetensiyaviy yondashuv, interfaol metodlar hamda raqamli texnologiyalarning matematika ta‘limidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish va real hayotiy masalalar orqali matematik bilimlarni mustahkamlash yo‘llari ko‘rsatib beriladi. Tadqiqot natijalari boshlang‘ich sinflarda matematika ta‘limi samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.*

*Ushbu maqola matematika fanini o‘qitishda qo‘llanilayotgan zamonaviy metodlarni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilib va ularning ta‘lim jarayonidagi ahamiyatini ochib beradi.*

**Kalit so‘zlar:** *Matematik savodxonlik, boshlang‘ich ta‘lim, innovatsion usullar, interfaol metodlar, kompetensiyaviy yondashuv, raqamli texnologiyalar.*

### **Kirish**

Hozirgi globallashuv va raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan davrda matematika fanining jamiyat hayotidagi o‘rni tobora ortib bormoqda. Ayniqsa boshlang‘ich ta‘lim bosqichida matematika fanini samarali o‘qitish o‘quvchilarning kelajakdagi bilim faoliyati va mantiqiy tafakkurini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Matematik savodxonlik nafaqat hisob- kitob qilish ko‘nikmalarini, balki olingan bilimlarni kundalik hayotda qo‘llay olish, muammoni tahlil qilish va mantiqiy xulosa chiqarish qobiliyatini ham o‘z ichiga oladi. Aynan boshlang‘ich bosqichda bolalarda sonlar, miqdorlar, geometrik shakllar haqidagi dastlabki tushunchalar shakllanadi. Bu tushunchalar esa keying ta‘lim bosqichlari uchun mustahkam poydevor vazifasini bajaradi. Shu bois, boshlang‘ich sinflarda matematika fanini o‘qitishda zamonaviy va innovatsion usullardan foydalanish dolzarb masalaga aylanmoqda.

### **Asosiy qism**

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun matematika nafaqat hisob-kitob qilish vositasi, balki fikrlashni tahlil qilishni va muammolarni hal etishni o‘rgatuvchi muhim fandır. Matematik savodxonlik o‘quvchilarning matematik bilim, ko‘nikma va malakalarini real vaziyatlarda qo‘llay olish qobiliyati bilan belgilanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida bu savodxonlikni shakllantirish orqali ularning mantiqiy fikrlashi, tahlil qilish va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalari rivojlanadi. Zamonaviy ta‘limda kompetensiyaviy yondashuv muhim o‘rin tutadi. Ushbu yondashuv asosida matematika darslarida o‘quvchilarni faqat bilim bilan emas, balki amaliy kompetensiyalar bilan ham qurollantirish maqsad qilinadi. Masalan, hayotiy vaziyatlarga asoslangan masalar yechish o‘quvchilarning matematik

savodxonligini oshiradi. Boshlang‘ich sinflarda ushbu savodxonlikni shakllantirish o‘quvchilarning keyingi bosqichdagi ta‘lim muvafaqqiyatining asosi hisoblanadi. Bugungi kunda ta‘lim jarayoniga innovatsion texnologilarni joriy etish matematika fanining ahamiyatini yanada oshirmoqda. Xususan, PISA tadqiqotlarida ham matematik savodxonlik hayotiy vaziyatlar asosida baholanadi. Interaktiv metodlar, o‘yin texnologilari va axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi. Natijada darslar samaradorligi ortib, o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirish darajasi yuqori bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinflarda interfaol metodlar, jumladan,

“Aqliy hujum”, “Klaster”, “Insert”, “O‘yin texnologiyalari”, “Kim tez?”, “Top va hisobla”, “Matematik estafeta” o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. O‘yin elementlari orqali tashkil etilgan mashg‘ulotlar bolalarning matematik tushunchalarni oson va mustahkam o‘zlashtirishiga yordam beradi.

Raqamli ta‘lim vositalari, multimediali materiallar va interaktiv platformalar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matematik savodxonligini shakllantirishda samarali hisoblanadi. Vizual va animatsion materiallar orqali murakkab tushunchalar sodda va tushunarli tarzda o‘rgatiladi. Vizual materiallar orqali murakkab tushunchalar oson qabul qilinadi.

Shuningdek, o‘qituvchining o‘rni ham nihoyatda muhimdir. O‘qituvchi matematika darslarini sodda, tushunarli, qiziqarli va hayotiy masalalar bilan bog‘liq holda tashkil etishi lozim. Har bir o‘quvchining individual imkoniyatlarini inobatga olish, ularni rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash matematika fanini o‘rganishda ijobiy natijalarga olib keladi.

### **Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinflarda matematika fanini samarali o‘qitish o‘quvchilarning nafaqat bilim darajasini oshirish, balki ularning mantiqiy fikrlashini, mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini ham rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot jarayonida aniqlanganki, an’anaviy o‘qitish usullari bilan bir qatorda zamonaviy pedagogik metodlar va innovatsion yondashuvlardan foydalanish dars samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Xususan, interfaol metodlar, o‘yin texnologiyalari, muammoli ta‘lim, klaster, aqliy hujum, guruhlarda ishlash kabi usullar o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi. Bu metodlar orqali o‘quvchilar matematik tushunchalarni osonroq anglaydi, mavzularni hayotiy misollar bilan bog‘laydi hamda o‘z fikrini erkin ifodalashga o‘rganadi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda o‘yin elementlari asosida tashkil etilgan darslar bilimlarning mustahkam o‘zlashtirilishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, ko‘rgazmali vositalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, didaktik materiallar bilan ishlash o‘quvchilarning tasavvurini kengaytiradi va abstrakt matematik tushunchalarni aniqroq anglashlariga yordam beradi. O‘qituvchining darsni puxta rejalashtirishi, har bir o‘quvchining individual imkoniyatlarini hisobga olishi va differensial yondashuvni qo‘llashi ham ta‘lim sifatini oshirishda muhim omil hisoblanadi.



Natijada, samarali metodlar asosida tashkil etilgan matematika darslari o‘quvchilarda fanga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantiradi, ularning bilim olishga bo‘lgan motivatsiyasini kuchaytiradi va kelgusida murakkab matematik bilimlarni o‘zlashtirish uchun mustahkam poydevor yaratadi. Demak, boshlang‘ich sinflarda matematika fanini o‘qitishda zamonaviy, interfaol va innovatsion metodlardan oqilona foydalanish bugungi ta‘lim jarayonining dolzarb vazifalaridan biri bo‘lib, bu o‘qituvchidan yuqori kasbiy mahorat va ijodiy yondashuvni talab etadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni.
2. OECD. PISA Mathematics Framework. Paris, 2019.
3. Polya G. How to Solve It . Princeton University Press.
4. Tursunov H.H. Matematika o‘qitish metodikasi. Toshkent.
5. Zamonaviy pedagogik texnologilar bo‘yicha ilmiy-uslubiy manbalar.